



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 17-dekabr

726-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 12-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi ekspertlarni akkreditatsiya qilish hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari rahbarlarini attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 8-iyundagi 317-son qaroriga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 3-dekabrda 809-son qarori ijrosi haqida”gi 595-6-0-Q/24-son qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas‘uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmoni ijrosini ta‘minlash hamda Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi ekspertlarni akkreditatsiya qilish hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari rahbarlarini attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 8-iyundagi 317-son qaroriga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 3-dekabrda 809-son hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 12-dekabrda 595-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 12-dekabrda 595-6-0-Q/24-son qarori rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 3-dekabrda 809-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas‘uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF-80-son Farmoniga asosan:

2024-yilda proaktiv va kompozit shakllariga o‘tkaziladigan davlat xizmatlari ro‘yxati tasdiqlanganligi; davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari rahbarlarini attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini proaktiv shaklga o‘tkazish nazarda tutilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi ekspertlarni akkreditatsiya qilish hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari rahbarlarini attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 8-iyundagi 317-son qaroriga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritilganligi:

davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari rahbarlarini attestatsiyadan o‘tkazish davlat xizmatini proaktiv shaklga o‘tkazishi;

davlat xizmatini ko‘rsatishda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari rahbarlari to‘g‘risida talab etiladigan ma‘lumotlarni vakolatli organ tomonidan “Raqqamli hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali mustaqil ravishda olishini tashkil etishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov